

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

2026-yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatda 4 476 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 753 tasi (17,0 %) kiyim ishlab chiqarishga, 752 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 648 tasi (14,5 %) boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 454 tasi (10,1 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 16 050,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	16050,7	108,5
Namangan shahar	4542,0	113,6
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	492,7	110,7
Kosonsoy tumani	768,0	108,1
Namangan tumani	651,4	108,6
Norin tumani	230,8	114,6
Pop tumani	451,5	113,2
To'raqo'rg'on tumani	2815,5	105,3
Uychi tumani	976,8	108,2
Uchqo'rg'on tumani	556,2	115,2
Chortoq tumani	441,1	109,4
Chust tumani	1454,4	108,7
Yangiqo'rg'on tumani	195,0	110,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2026- yil yanvar-may oylarida 5 021,0 ming so'm (2025- yil yanvar-may oylarida 4 297,1 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 314,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %)ni tashkil etgan holda, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 476,0 mlrd so'm (15,4 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 198,6 mlrd so'm (1,2 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 61,4 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 13 564,0 tonna paxta chigiti (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,8 martaga ko'paygan), 223,7 tonna paxta tiviti(lint) (12,5 % ga kamaygan), 17 112,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (14,5 % ga kamaygan), 11 683,9 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (7,6 % ga ko'paygan) hamda 2 184,5 tonna tozalanmagan paxta yog'i (41,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may
Paxta chigiti, tonna	14 173,2	3 595,2	13 564,0
Paxta tiviti (lint), tonna	686,4	328,7	223,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	17 776,0	20 021,0	17 112,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	16 343,0	12 646,5	11 683,9
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	7 372,7	3 754,5	2 184,5
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	5 700,0	2 011,7	383,2
Paxta iplari, tonna	18 172,2	12 037,7	28 239,5
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	2 515,7	2 985,5	2 739,1

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 41,0 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,7 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,2 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 164,9 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 %ni (2025-yilning yanvar-may oylarida 1,1%), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,2 % (8,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,0 % (13,7 %), quyi texnologiyali 76,1 % (76,9 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 80,5 %ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa, 111,9 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln.kvt.s	2 623,0	2 442,0	1 966,2
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	59,3	47,6	53,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 172,2 %ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 2,2 martaga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 146,7 %ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	56,8	57,8	99,8
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	3,9	5,0	11,3
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	25,0	25,8	37,8

*2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 039,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,1 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,1 % ni tashkil etgan.



*2025-yil yanvar-may oylari uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

N. Abduraxmonova
69 211-72-00 (5010)

Manzil:

**160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.**
